

BOSHLANG‘ICH MAKTABDA INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYANING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Umarova Dilafrō‘z Anvarovna

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti, „Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası”
o‘qituvchisi*

Qosimova Nilufar Ravshan qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
4- kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim tizimida innovatsion yondashuvlar va integratsiyalashgan ta‘lim metodlarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy ta‘limda bu ikki yo‘nalishning o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali ta‘lim sifatini oshirishning samarali yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, integratsiya, boshlang‘ich ta‘lim, interfaol metodlar, pedagogik yondashuvlar.

Abstract: This article analyzes the interrelationship of innovative approaches and integrated teaching methods in the primary education system. It also considers effective ways to improve the quality of education through the combination of these two directions in modern education.

Keywords: innovation, integration, primary education, interactive methods, pedagogical approaches.

Абстрактный: В статье анализируется взаимосвязь инновационных подходов и методов интегрированного обучения в системе начального образования. В нем также рассматриваются эффективные способы повышения качества образования путем интеграции этих двух направлений в современное образование.

Ключевые слова: инновации, интеграция, начальное образование, интерактивные методы, педагогические подходы.

Kirish

XXI asrda ta‘lim tizimida yuz berayotgan global o‘zgarishlar o‘qituvchidan doimiy yangilanish, kreativ fikrlash va pedagogik faoliyatga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishni talab qilmoqda. Boshlang‘ich ta‘lim esa bu jarayonning asosiy pog‘onasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim jarayonida innovatsiya va integratsiya tushunchalari tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda va ular o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Boshlang‘ich ta‘lim umumta‘lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli

ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e‘tibor berish lozim. Shu o‘rinda, albatta, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas‘uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas‘uliyatli ekanligini ko‘rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklarini uyg‘otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir.

Ta‘lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo‘lgan vazifalari amalga oshirishda qo‘llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o‘z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo‘llanilayotgan harturli usullari va shakllari asosida ko‘plab ta‘lim metodlari hosil bo‘lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta‘lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo‘li, usuli yoki ko‘rinishidan iborat bo‘lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos ta‘lim metodini hosil qiladi. Bunda harakatni amalga oshirish yo‘li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan bir nechta yo‘llardan oldindan ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo‘lni aytiladi. Masalan, savod o‘rgatish yo‘llari: oilada o‘rgatish, maktabda o‘rgatish, maktabgacha ta‘lim muassasasida o‘rgatish, o‘qituvchi yordamida o‘rgatish, kitoblar, kompyuter, ko‘rgazma qurollar va boshqalar vositasida o‘rgatish. Shunga o‘xshash sanoqni, arifmetik amallarni o‘rgatishda ham yuqoridagiga o‘xshash yo‘llardan foydalanish mumkin. Shu yo‘llardan foydalashib harakatni amalga oshirishda har turli metodlar qo‘llaniladi. Biror metodni qo‘llanildagi harakatni amalga oshirish ko‘rinishi deb shu harakatni batafsil tasvirlovchi ko‘rinishga aytiladi. Bunda harakatning kuzatiladigan o‘zgarishlari, vaziyatlari, tezligi va uning ortishi yoki sekinlashuvi, to‘xtashlari, bir nechta harakatlarning bir vaqtdaligi yoki ularning vaqt oraliqlari, harakatlar natijasi, amaliy ishlar bajarish mashulotlarida esa, ishlov berilayotgan shakllar, fazoviy xolatlar, ranglar, qattiq-yumshoqlik, sirtlarning tekisligi yoki g‘adirbudurligi o‘zgarishlari va boshqa kuzatish mumkin bo‘lgan turliharakat ko‘rinishlari nazarda tutiladi. Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalaniladi. Bu metodlarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish operastiyalarining yoki yo‘llarining yiindisi deyish mumkin.

Innovatsiya tushunchasi va uning boshlang‘ich ta‘limdagi o‘rni

Innovatsiya — bu yangilik kiritish, mavjud metod, vosita yoki yondashuvga o‘zgartirish kiritish orqali sifat va samaradorlikka erishish demakdir. Boshlang‘ich maktabda innovatsion texnologiyalar qo‘llanilishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va darslarga qiziqishini oshiradi.

Innovatsion yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish;

Interfaol dars metodlari;

Differensial yondashuv;

Konstruktiv ta‘lim tizimi.

Bu texnologiyalar o‘quvchilarni faollashtirish, ularni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish orqali ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan ta‘lim: mohiyati va ahamiyati

Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog‘liqlikdir. Fanlararo bog‘liqlik asoslari tabiatni to‘la holda o‘quv darsliklarda ko‘rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo‘lgan. Ulug‘ didaktik Yan Amos Komenskiy ta’kidlashicha: "Bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o‘rganilishi kerak". Fanlararo bog‘liqlik g‘oyasiga keyinchalik juda ko‘p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo‘shdilar. D.Lokk g‘oyasiga ko‘ra: "Ta‘lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak". Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta’kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo‘ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. AQSH o‘rta maktablarining katta sinflarida o‘z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni o‘z ichiga oluvchi "Yerni o‘rganish" fani kiritilgan. Chexoslovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan "Fuqaro tarbiyasi" deb nomlangan kurs katta sinflarda kiritilgan.

Integratsiya (lotincha “integratio” — birlashtirish) fanlararo, mavzulararo va konseptual bog‘liqlik asosida ta‘lim berishni anglatadi. Boshlang‘ich maktabda integratsiyalashgan ta‘lim orqali o‘quvchilar bilimni tizimlashtirish, mavzular o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni anglash imkoniyati yaratiladi. Integratsiyalashgan yondashuv quyidagilarga asoslanadi:

Fanlararo aloqalarni mustahkamlash;

O‘quvchilarda yaxlit dunyoqarash shakllantirish;

Real hayot bilan bog‘liq topshiriqlar asosida ta‘lim berish.

Misol uchun, “Tabiatshunoslik” fanidagi mavzularni “Matematika” yoki “O‘qish” fanidagi mavzular bilan bog‘lab o‘rganish o‘quvchining bilimlarni hayotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqelik hodisalarining bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va ematsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o'rnatish ta'limga integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyasiga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalashgan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron" kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilish boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalashgan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tishi metodikasiga ega bo'ladi.

Innovatsiya va integratsiyaning o‘zaro bog‘liqligi. Boshlang‘ich maktabda innovatsiya va integratsiya bir-birini to‘ldiruvchi ikki yo‘nalishdir. Integratsiyalashgan yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun innovatsion metodlardan foydalanish zarur. Aksincha, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayonida integratsion yondashuv ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Misollar: Elektron darsliklar yordamida bir nechta fan materiallarini birlashtirish;

STEAM yondashuvi (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikaning integratsiyasi);

Interfaol platformalarda kross-kurikul loyihalar asosida ishlash.

Shunday qilib, innovatsiya va integratsiya pedagogik jarayonda o‘zaro uyg‘unlashib, bolalarning bilim olish motivatsiyasini kuchaytiradi, ularni mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining roli

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi innovatsion va integratsion yondashuvlarni birlashtirgan holda quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim:

Didaktik materiallarni zamonaviy texnologiyalarga moslab ishlab chiqish;

Fanlararo bog‘liqlikni anglay olish;

Har bir o‘quvchining individualligini hisobga olish;

Moslashuvchan metodikani ishlab chiqish va qo‘llash.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, chuqur va mustahkam bilim olishiga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar yordamida integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirish esa ta’lim sifatini yuksaltirishning eng muhim omillaridan biridir. O‘qituvchi esa bu jarayonning bosh ijrochisi sifatida o‘z ustida muntazam ishlashi zarur. Innovatsiya va integratsiya bugungi kunda ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadigan ikki asosiy yo‘nalishdir. Innovatsiyalar pedagogik jarayonga ilg‘or g‘oyalar, yangi texnologiyalar va metodlarni joriy qilish orqali o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini kuchaytiradi. Integratsiya esa turli fanlar va yo‘nalishlar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatib, ta’lim mazmunini yaxlitlashtirish, bilimlarni chuqurroq egallash imkonini yaratadi. Ushbu ikki yondashuvning o‘zaro aloqadorligi shundaki, innovatsion faoliyat integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi, chunki zamonaviy ta’lim metodlari ko‘p fanli, ko‘p yo‘nalishli yondashuv asosida quriladi. Shuningdek, integratsiya orqali yaratilgan yangi ta’lim muhitlari innovatsion g‘oyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qulay zamin yaratadi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiyaning uyg‘unlashuvi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qituvchidan yangicha fikrlash, ilg‘or texnologiyalardan foydalanish va fanlararo bog‘liqlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish kabi kompetensiyalarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukodirova M. “Innovatsion texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etish”, Toshkent, 2022.
2. Qurbonov A. “Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan yondashuv”, “Ta’lim” nashriyoti, 2021.
3. Yo‘ldoshev M. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, 2020.
4. UNESCO. “Innovatsiya va integratsiya: global ta’lim tendensiyalari”, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Boshlang‘ich ta’lim davlat standarti”, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.
7. <https://lex.uz/acts/-3107036>

8. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.

9.R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.

10.T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. 1-sinf "O'qish kitobi", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018.

11.T.G'afforova, E.Shodmonov, X.G'ulomova. 1-sinf "Ona tili", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018.